**Buxoro viloyati statistika boshqarmasi**

# YURIDIK SHAXS MAQOMIGA EGA BO‘LGAN KORXONA VA TASHKILOTLARDA ISHLOVCHI XODIMLARNING O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

(2022-yil yanvar-mart, dastlabki ma’lumotlar qishloq xo‘jaligi va tadbirkorlik sub’yektlaridan tashqari)

2022-yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2 959,1** ming so‘mni tashkil etdi, 2021-yilning mos davriga nisbatan 13,3 % ga o‘sgan.

2022-yil yanvar-mart oylarida yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan korxona va tashkilotlarda ishlovchi, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik sub’yektlaridan tashqari xodimlarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari (keyingi o‘rinlarda – o‘rtacha oylik ish haqi) har bir iqtisodiy faoliyat turlarida turlicha farqlanadi.

O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarkibiga qo‘shimcha to‘lovlar, mukofot pullari, rag‘batlantiruvchi to‘lovlar, konpensatsiya va ishlamagan vaqti uchun to‘lovlar, shuningdek, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i va kasaba uyushmasiga ajratmalar kiradi.

## Mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori dinamikasi, *so‘mda*




## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqi,

*ming so‘mda*




**Ming kishi**

## Buxoro viloyati bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2022-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)











**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

# IQTISODIY FAOLIYAT TURLARIDA O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI

## SANOAT

2022- yil yanvar-mart oylarida sanoat sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 809,8 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 120,3 foizni tashkil etdi.

Sanoat sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 6 173,6 ming so‘mni, Shofirkon tumanida 5 289,7 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 2 marta ko‘p), tashkil etgan bo‘lsa, Jondor tumanida 2 214,5 ming so‘mni (93,9 foiz) va Buxoro tumanida 1 940,6 ming so‘mni (82,3 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

**Hududlar kesimida,** *ming so‘mda*



# QURILISH

2022-yil yanvar-mart oylarida qurilish sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 902,7 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 96,6 foizni tashkil etdi.

Ushbu sohadagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini viloyat hududlari bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Qorovulbozor tumanida 3 271,9 ming so‘mni (viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan 112,7 foiz), Kogon tumanida 2 992,5 ming so‘mni (103,1 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Buxoro tumanida 2 576,3 ming so‘mni (88,8 foiz), Buxoro shahar 2 431,8 ming so‘mni (83,8 foiz), Romitan tumanida 2 393,6 ming so‘mni (82,5 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## **Hudodlar kesimida,** *ming so‘mda*




**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

# TA’LIM

2022-yil yanvar-mart oylarida ta’lim sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 355,3 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 110,0 foizni tashkil etdi.

Ta’lim sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 3 122,5 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (132,6 foiz), Qorovulbozor tumanida 2 794,6 ming so‘mni (118,7 foiz) va Kogon shahar 1 996,6 ming so‘mni (84,8 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Peshku tumanida 1 951,9 ming so‘mni (82,9 foiz), Vobkent tumanida 1 782,7 ming so‘mni (75,7 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## Hududlar kesimida, *ming so‘mda*



# TASHISH VA SAQLASH

2022- yil yanvar-mart oylarida tashish va saqlash sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 759,4 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 115,5 foizni tashkil etdi.

Tashish va saqlash sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Romitan tumanida 6 742,4 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (141,7 foiz), Kogon tumanida 6 676,1 ming so‘mni (140,3 foiz), Kogon shaharida 4 995,4 ming so‘mni (105,0 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorovulbozor tumanida 3 429,5 ming so‘mni (72,1 foiz), Buxoro shahar 2 419,6 ming so‘mni (50,8 foiz), G‘ijduvon tumanida 841,0 ming so‘mni (17,7 foiz)tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## Hududlar kesimida, *ming so‘mda*



# AXBOROT VA ALOQA

2022- yil yanvar-mart oylarida axborot va aloqa sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 830,5 ming soʻmni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 158,2 foizni tashkil etdi.

Axborot va aloqa sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini hududlar boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro shahrida 4 053,6 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (105,8 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Qorakoʻl tumanida 1 391,7 ming soʻmni (36,3 foiz), Buxoro tumanida 960,3 ming soʻmni (25,1 foiz) va Olot tumanida 871,9 ming soʻmni (22,8 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

## Hududlar kesimida, *ming soʻmda*



# MOLIYAVIY VA SUGʻURTA

2022- yil yanvar-mart oylarida moliya va sugʻurta faoliyati sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 951,6 ming soʻmni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 133,0 foizni tashkil etdi.

Moliya va sugʻurta sohasidagi oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi koʻrsatkichini hududlar boʻyicha koʻradigan boʻlsak, oʻrtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Buxoro tumanida 9 427,3 ming soʻmni viloyatdagi oʻrtacha oylik ish haqiga nisbatan (135,6 foiz), Shofirkon tumanida 8 189,2 ming soʻmni (117,8 foiz) va Olot tumanida 7 557,7 ming soʻmni (108,7 foiz) tashkil etgan boʻlsa, Romitan tumanida 5 065,9 ming soʻmni (72,9 foiz), Jondor tumanida 3 757,7 ming soʻmni (54,0 foiz), Peshku tumanida 2 825,6 ming soʻmni (40,6 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega boʻlmoqda.

## **Hududlar kesimida,** *ming soʻmda*




## Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

# SOG‘LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIY XIZMATLAR KO‘RSATISH

2022- yil yanvar-mart oylarida sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 333,5 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 106,1 foizni tashkil etdi.

Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Qorovulbozor tumanida 2 907,5 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (124,6 foiz), Kogon shahar 2 507,5 ming so‘mni (107,5 foiz) va Olot tumanida 2 504,9 ming so‘mni (107,3 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, Qorako‘l tumanida 2 035,9 ming so‘mni (87,2 foiz), Vobkent tumanida 1 903,8 ming so‘mni (81,5 foiz), Buxoro tumanida 1 796,8 ming so‘mni (77,0 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## Hududlar kesimida, *ming so‘mda*




## O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

# SAVDO

2022- yil yanvar-mart oylarida savdo sohasida (kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari) o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 358,9 ming so‘mni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 114,3 foizni tashkil etdi.

Savdo sohasidagi o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko‘rsatkichini hududlar bo‘yicha ko‘radigan bo‘lsak, o‘rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori, Vobkent tumanida 4 796,6 ming so‘mni viloyatdagi o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan (2 marta ko‘p), Kogon tumanida 2 430,3 ming so‘mni (103,0 foiz) tashkil etgan bo‘lsa, G‘ijduvon tumanida 1 680,1 ming so‘mni (71,2 foiz), Kogon shahar 1345,3 ming so‘mni (57,0 foiz) va Buxoro tumanida 840,0 ming so‘mni (35,6 foiz) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo‘lmoqda.

## **Hududlar kesimida,** *ming so‘mda*




**O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**

## Yuridik shaxs maqomiga ega korxona va tashkilotlarda ishlovchi xodimlarning oʻrtacha oylik ish haqi,

*ming soʻmda*

| | *2021- yil yanvar- mart* | *2022- yil yanvar- mart* | *Oʻsish sur'ati, % da* |
|---|---|---|---|
| **Buxoro viloyati** | **2610,8** | **2959,1** | **113,3** |
| Buxoro sh. | 2792,0 | 3338,5 | 119,6 |
| Kogon sh. | 3857,1 | 4247,4 | 110,1 |
| *tumanlar:* | | | |
| Olot | 2147,1 | 2568,5 | 119,6 |
| Buxoro | 2379,4 | 2291,8 | 96,3 |
| Vobkent | 1778,3 | 2001,8 | 112,6 |
| Gʻijduvon | 2110,1 | 2328,7 | 110,3 |
| Kogon | 2412,5 | 2361,9 | 97,9 |
| Qorakoʻl | 1903,5 | 2292,2 | 120,4 |
| Qoravulbozor | 3900,1 | 4505,1 | 115,5 |
| Peshku | 1934,3 | 2164,0 | 111,9 |
| Romitan | 2410,1 | 2841,1 | 117,9 |
| Jondor | 2205,4 | 2281,8 | 103,5 |
| Shofirkon | 2069,3 | 2277,1 | 110,0 |

**Demografiya va mehnat statistikasi boʻlimi**

*Tel: (71) 230-83-16, (65) 223-83-37*